

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING ROLI

N. Rametullaeva

Qoraqalpoq davlat universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15643877>

Annotasiya: makolada talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarining roli xakida vatafsil yoritilgan.

Kalit suzlar: milliy qadriyatlar, talabalar vatanparvarligi, urf-odatlar, ma'naviy meros, til, din, milliy liboslar, oilaviy munosabatlar.

Аннотация: в статье подробно освещается роль национальных ценностей в патриотическом воспитании студентов.

Ключевые слова: национальные ценности, патриотизм студентов, обычаи, духовное наследие, язык, религия, национальная одежда, семейные отношения.

Abstract: The article details the role of national values in the patriotic education of students.

Keywords: national values, student patriotism, customs, spiritual heritage, language, religion, national dress, family relations.

Kirish

Ta'lim tizimi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim omili sifatida e'tirof etilib, rivojlangan davlatlarda ta'lim jarayonini baynalmilallashtirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyatlararo munosabatlarda bag'rikeng, kreativ va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga ustuvorlik berilgan. Dunyoning AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarining ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'limning globallasuvi jarayonida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan bilim va ko'nikmalar majmuini shakllantirish, ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishning innovatsion texnologiyalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti, uning kelajagi yosh avlod, ayniqsa talabalarning intellektual salohiyati va ma'naviy etukligiga bevosita bog'liq. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, “Yangi O'zbekistonni yoshlar bilan birga barpo etamiz”. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni, xususan talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlar muhim tarbiyaviy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida millatdoshlarimiz dunyoqarashlari va real hayotiga millat, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy birlik, milliy manfaat, milliy vatanparvarlik, milliy ma'naviyat, milliy qadriyat, milliylik va umuminsoniylik

kabi bir qator tushunchalar jadal kirib bormoqda. Ammo milliy rivojlanishimizning nazariy muammolarini o‘rganish real jarayondan orqada qolmoqda. Boz ustiga milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga bag‘ishlanib tipli anjumanlar o‘tkagizilayotgan, maqolalar va kitoblar bosib chiqarichayotgan bo‘lsa-da: Millatning o‘zi nima? Bu birlikni ushlab turuvchi omillar nimalar? Milliy omilning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni nimalarlan iborat? kabi bir qator masalalar ilmiy jihatdan yaxshi o‘rganilmay qolmoqda. Nazarimizda, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni xalqimizga qaytarishni ilmiy tashkil qilish, ularni yoshlarimiz o‘rtasida tashviqot qilish uchun eng avvalo, yuqoridagi masalalarning mohiyatini ochib berish zarur. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, mazkur masalalarning ayrimlari haqida to‘xtashni lozim topdiq.

Ma'lumki, millatning o‘ziga xosligini belgilovchi, milliy tafakkur, axloq va odobga, barcha an'ana va qadriyatlarga ta'sir etuvchi milliy ong o‘z mohiyati jihatidan juda murakkab va ko‘p qirralidir. Milliy ong millatning tarixi, taqdiri va istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni ifodalovchi millat vakillari faoliyatiga maqsad va yo‘nalish beradigan fikrlar tizimidir. U tarixiy xotira sifatida ijtimoiy borliqda aks etadi. Millatni yaxlit milliy ongsiz va milliy xotirasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Millatning barcha davrlardagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy kamoloti milliy ongda o‘z ifodasini topadi. Milliy ong bo‘lmagan sharoitda nafaqat milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, millatning o‘zi real sub'ekt, ijtimoiy etnik institut sifatida ham mavjud bo‘la olmaydi [1; 147]. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, milliy ong va uning rivojlanishi natijasidagina olomon millat darajasiga ko‘tariladi. Chunki etuk milliy ong zaminida milliy birlik barqaror bo‘lishi, milliy yaxlit, uyushgan ijtimoiy kuch sifatida tarix maydoniga chiqishi mumkin. Etuk milliy ong bo‘lmasa, urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik, guruhbozlik kabi illatlar hukmronlik qiladi. Milliy ong zamini esa, insonning o‘zini-o‘zi anglashi bilan bog‘liq. Har bir inson o‘zligini anglashi orqali o‘z millatini anglash tomon rivojlanib boradi.

Tadqiqot uslublari

Qadriyat insonning ma'naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladigan, shu bois insoniyat tomonidan qadrlanadigan, madaniy, ma'naviy, mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy omillarning majmuidir. Milliy qadriyatlar — bu avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlar, ma'naviy meros, til, din, milliy liboslar, oilaviy munosabatlar, mehnatsevarlik, vatanga sadoqat kabi insoniy xislatlar majmuasidir. Ular orqali inson nafaqat o‘z millatini taniydi, balki jamiyatda munosib o‘rin egallashga intiladi. Talabalar vatanparvarligi nafaqat ta'lim jarayonida, balki ularning kundalik hayoti, ijtimoiy faolligi, milliy tadbirlarda ishtirok etishi orqali ham shakllanadi.

Masalan: Tarixiy merosni o‘rganish — talabalarning mamlakat tarixi, milliy qahramonlar hayoti haqida chuqur bilim olishi ularda fahr tuyg‘usini uyg‘otadi. Milliy bayramlar va an‘analari — Navro‘z, Mustaqillik kuni, Mehr-oqibat oyi kabi tadbirlarda talabalarning faol ishtirok etishi vatanga mehrni mustahkamlaydi. Shuni aytib o‘tish kerakki 60-yillarning o‘rtalarida ma‘lum ma‘noda xalq bayramlariga e‘tibor berila boshlangan bo‘lsa ham, ular umum respublika bayrami sifatida emas, balki ayrim joylardagina nishonlanar edi. 80-yillarning o‘rtalarida respublikaning ayrim rahbarlarining sub‘ektiv qarashlari natijasida "Navro‘z"ni bayram qilish taqiqlab qo‘yildi. Ba‘zi shaxslar minglab yillardan beri nishonlab kelinayotgan "Navro‘z" o‘rniga aprel oyining boshida sun‘iy o‘ylab topilgan "Navro‘z" nomli yangi bayramni taklif qilishdi. Biroq xalq qo‘llab-quvvatlamagan bu bayram uzoq yashay olmadi. Hayriyatki, oxir oqibatda sog‘lom kuchlar g‘alaba qildi[2; 98]. Mustaqillik tufayli qadriyatlarimiz tiklandi, turli an‘analari, xalq, marosimlari qatori ko‘pchilik bayramlarimiz ham qaytib keldi. Chunonchi, 21 martdan 21 aprelgacha "Insonlikni va tabiatni e‘zozlash" oyligi ichida "Navro‘z", "Boychechak bayrami", "Lola sayli" singari bayram marosimlari keng nishonlana boshladi. Bundan tashqari unutilib borilayotgan "O‘qish bayrami", "Suv sayli", "Anor sayli", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi bayramlarimiz inqilobga qadar ham nishonlanib kelingan. Afsuski, mazkur bayramlar to‘kin sochinlik, farovonlik, tinchlik, osoyishtalik ramzi sifatida xalqning ezgu-orzu, umid, tilak-istaklari, intilish va rejalarining ifodasi sifatida yashashi va rivojlanishi mumkin edi. Biroq, shaxsga sig‘inish va turg‘unlik yillarida chiroyli bayramlarimiz o‘rnini bir qolipga solingan namoyishlar egalladi, portretbozlik, shiorbozliklar kuchaydi. Namoyishlar guyo xalq uchun emas, minbarda turgan rahbarlar uchun uyushtiriladi edi. Mazmuni kam, ko‘rinishi ham har yili bir xil bo‘lgan bunday namoyishlarga odamlarning qiziqishlari borgan sari pasayib bordi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi

Milliy o‘z-o‘zini anglash millat shakllanishining ma‘lum bir nisbiy yuqori bosqichining mezonidir. Millatning o‘z-o‘zini anglashi darajasiga ko‘tarilishi murakkab jarayon bo‘lib, u millat vakillarining aksariyat qismida yagona moddiy va madaniy boylikka ega ekanligi hissiyotining mavjud bo‘lishi, urug‘-aymoqchilik manfaatlaridan umummilliy manfaatlar ustuvor ekanligini tushunib etishi bilan bog‘liqdir. Milliy o‘z-o‘zini anglash milliy ongdan farq qiladi. Milliy ong har millatning yagona tili, urf-odatlari, an‘analari, qadriyatlari va ma‘naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O‘z navbatida milliy onging rivojlanib borishi har bir millatning o‘z-o‘zini anglash darajasini ko‘taradi. Demak, milliy ong millatning o‘ziga xosligi asosida rivojlanib borishi ko‘rsatkichi bo‘lsa, milliy o‘z-o‘zini anglash milliy

manfaatlarni himoya qilishda harakatga qiluvchi ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatdir. Milliy o'z-o'zini anglash real moddiy kuch sifatida millat sha'ni, qadr-qimmatı, obru-e'tibori, or-nomusi poymol etilganda yoki millatning moddiy va ma'naviy manfaatlariga zid ikkinchi bir tomon zo'raonlik harakatlarini yuzaga keltirganda namoyon bo'ladi. Sha'ni, qadr-qimmatı, or-nomusi, obru-e'tibori, qadriyatları va manfaatları poymol etilgan millat vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, boy yoki kambag'al bo'lishidan qatıy nazar yagona umummilliy kuch, bo'lib birlashadilar va o'zligini himoya qiladilar.

Shunday qilib milliy o'z-o'zini anglash millat manfaatlarini himoya qiluvchi omil hisoblanadi. U faqat milliy manfaatları himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki millatni “harakatga” ham keltiradi va uni birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda milliy o'z-o'zini anglash omili millatni birlashtiradi va uni umum maqsadlar yo'lida harakatga keltiradi. O'z-o'zini anglash o'zining katta salohiyati bilan millat uchun zarur bulgan o'ziga xos belgilar tizimida etakchi o'rinni egallaydi, u millat abadiyligini ta'minlovchi muhim omil hamdir[3; 78].

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida “Ma'naviyat soati”, “Yoshlar bilan muloqot”, “Vatanga sadoqat” mavzusidagi davra suhbatları, “Vatanni sevmok – imondandir” kabi ma'naviy-ma'rifiy loyihalar talabalarning ongida vatanparvarlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, “Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi doirasida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni milliy merosni asrashga jalb etish ishlari olib borilmoqda. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadi uning psixologik va didaktik mazmunini belgilaydi, bu esa milliy ongni shakllantirish jarayonini rag'batlantirish va tashkil etishning muayyan usullari, vositalari va shakllarini talab qiladi.

Xulosa

Qadriyat keng qamrovli, nurma'no, hikmatli so'zdir. O'z qadrini bilgan kishigina boshqalar qadriga etadi. Demak, o'z milliy qadriyatlarini hurmat qilib e'zozlagan, rivojlantirish haqida o'ylagan insongina o'sha xalq vakili degan ulug'unvonga sazovor bo'ladi. Milliy qadriyat xalq o'tmishiga, buguni va kelajagiga, fan va madaniyat taraqqiyotiga, milliy axloq-odobga yuksak hurmat belgisidir. Shu bois hozirgi davrda ta'lim sohasidagi dolzarb vazifalarni bajarishda milliy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu milliy istiqlol g'oyalarini amalga oshirishdagi eng muhim qadamlardan biridir. Milliy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalangan talabalar nafaqat bilimli, balki yurtiga sadoqatli, el-yurtini ardoqlaydigan shaxs sifatida voyaga etadi. Shu sababdan har bir ta'lim muassasasida

milliy qadriyatlarni tiklash, qadrlash va yoshlar ongiga singdirish bo'yicha ishlarni yanada takomillashtirish zarur. Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish muammosi ko'p qirrali ekanligini va yuqoridagi tadqiqot uning barcha tomonlarini ochib bera olmasligini hisobga olib, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va pedagogik amaliyot jarayonida talabalarda milliy ong shakllantirish masalalarini o'rganish istiqbolli hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarini o'rganish borasidagi uslubiy ishlar tizimida milliy qadriyatlarga doir ilmiy-metodik, badiiy va texnikaviy adabiyotlar ma'lumotnomalarini tuzish va undan foydalanish yo'llarini belgilash, kurs mashg'ulotlarining "Bahs", "Fikrlar jangi" (Allomalar bahsi, xususan, Ar-Roziy va Forobiy, Ibn Sino va Beruniy bahslari) kabi noan'anaviy shakl va usullaridan foydalanish ham ijobiy natijalar beradi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, xalq ta'limini rivojlantirishning hozirgi bosqichida o'quvchilarimizga berilayotgan ta'lim-tarbiyani shunga ko'ra o'qituvchilarimizning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish borasidagi ishlarni milliy va umuminsoniy qarashlar asosida tashkil etilishini taqozo etadi.

Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlarini, marosimlari, bayramlari o'z alohida ahamiyatiga ega. Madaniy-ma'naviy merosimiz, asriy an'analar, o'tmishdan avlod-ajdodlarimiz mehri bilan bizlarga etib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk xazinadir. "Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l quymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va modliy qiyinchilik kunlarida irodani mustaxkamlaydi".

Insoniyat o'zining boy tarixini tahlil qilib, turli millatlarini, har xil dinlar siyosiy o'qimlarga mansub insonlarni birlashtiruvchi "umuminsaniy qadriyatlar" tushunchasini iishlab chiqdi. Umuminsoniy qadriyatlar biz uchun ayniqsa, O'zbekiston xalqi ko'p millatli va turli dinlarga mansubligi uchun o'ziga xos bir mezon sifatida xizmat qilishi mumkin. Demak, aytilganlardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni pedagoglarning talabalar bilan olib borayotgan ta'limiy-tarbiyaviy amaliyotga joriy etsa to'g'ri bo'ladi:

- milliy urf-odat, marosimlarni XXI asr talablaridan kelib chiqib, ilmiy jihatdan tahlil etish;

-ularning mazmunini, ijtimoiy hayotdagi mohiyatini o'rganish va turli bahs-munozaralar orqali milliy ong, adolat mezonlariga yot qo'shimchalarga nisbatan ularning ongini shakllantirish.

“JASLARDĪŃ ILIMDE TUTQAN ORNĪ”

atamasındađı XV respublikalıq ilimiy teoriyalıq konferenciya

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, A. (2021). Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: O‘zbekiston adabiyoti va san'ati nashriyoti.
2. Qodirov, M. (2020). O‘zbekistonda vatanparvarlik tarbiyasi. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashri.
3. Karimov, I. A. (2015). Milliy davlatchilik va yoshlar. Toshkent: Nur Print.